

INKLYUZIV TA'LIM ISTIQBOLI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Shoymatova Gulnoza

Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi.

Cho'lliyeva Afzuna

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi.

email: afzunacholliyeval@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13921211>

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida Guliston davlat pedagogika institutida o'tkaziladigan anjuman to'g'risida bayon etiladi. Unda inklyuziv ta'lim sifatiga urg'u beriladi. Bugungi kundagi ta'lim sifatini oshirishga oid yechim va muammolar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, innovatsiya, strategiya, konvensiya.

PROSPECT OF INCLUSIVE EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS.

Abstract. This article describes the conference held at Gulistan State Pedagogical Institute to improve the quality of inclusive education. It emphasizes the quality of inclusive education.

Solutions and problems related to improving the quality of education today were revealed.

Keywords: inclusive education, higher education institutions, innovation, strategy, convention.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ.

Аннотация. В данной статье описывается конференция, проведенная в Гулистанском государственном педагогическом институте по повышению качества инклюзивного образования. Он подчеркивает качество инклюзивного образования.

Выявлены пути решения и проблемы, связанные с повышением качества образования сегодня.

Ключевые слова: инклюзивное образование, высшие учебные заведения, инновации, стратегия, конвенция.

Kirish. Rivojlanishning bugungi davrida butun dunyoda sog'lom va nosog'lom (sog'ligida nuqsoni bor) insonlar auditoriyada birgalikda bilim olishlari uchun innovatsion ta'lim platformalari asosida o'quv jarayonlari tashkil etilmoqda.

Jahonda bu ta'lim amaliyoti "inklyuziv ta'lim" deb yuritiladi. Bugungi kunda bu ta'lim O'zbekistonga ham "inklyuziya" (birgalikda ishtirok etish) tushunchasi ostida kirib keldi. Bu ta'lim mazmuni shundan iborat bo'lib, bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdir. UNICEF tashkiloti inklyuziv ta'lim dasturini O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish bo'yicha shug'ullangan. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari shundan iboratki, bolaning qobiliyati va holatidan kelib chiqqan holda ularning sifatli ta'limini kafolatlashdan iborat.

Sog'ligida nuqsoni bor bolalarni tarbiyalash, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Bugungi kunda respublikamizda 700 mingdan ortiq nogironligi bor shaxslar mavjud. Ularning 100 mingdan ortig'ini esa 16 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. So'nggi yillarda ularning huquqlarini ta'minlash maqsadida bir necha qaror va farmonlar ham ishlab chiqilgan. Ularan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF 5847-sonli farmoni qabul qilindi. Bu farmonda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni, jumladan nogironlarning oliy ta'lim sifatini oshirish nazarda tutilgan.

Asosiy qism. Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni tarbiyalash bugungi kun mavzusi hisoblanadi. Ular ham barcha tengqurlari qatorida bilim olishga, oliy ta'limda tahsil olishga munosibdir. Bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun ham bir qator ishlar olib borilmoqda. Bulardan biri Guliston davlat pedagogika institutida o'tkazilayotgan anjumandir. Bu anjuman O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida" gi buyrug'i ijrosini ta'minlash uchun bo'lib o'tadi. Bu anjuman o'tkazilishidan bosh maqsad shuki, inklyuziv ta'lim tizimiga urg'u bergan holda maktabgacha va umumta'lim maktablari uchun malakali, yosh kadrlarni, pedagog mutaxasislarni tayyorlash muammosi, umumta'lim maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, ular bilan tajriba almashish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Anjuman jarayonida quyidagi ilmiy va ustuvor yo'nalishlarga urg'u beriladi va ko'rib chiqiladi:

Birinchidan, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadi va ustuvor yo'nalishlari to'g'risida;

Ikkinchidan, inklyuziv ta'lim oluvchilarning ta'lim olish jarayonidagi o'quv xonalari va boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini tashkil etishdagi muammolar to'g'risida;

Uchinchidan, oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari to'g'risida;

To'rtinchidan, inklyuziv ta'lim tizimidan umumta'lim va maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish istiqbollari to'g'risida;

Beshinchidan, inklyuziv ta'limda pedagogik o'qituvchi va professorlar, psixologlar va otalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish to'g'risida o'tkaziladi.

Keyingi yillarda yurtimizda nogironlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida bir qancha qonunlar ishlab chiqildi. Bulardan biri 2020-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" gi qonundir. Ushbu qonunda nogironligi bor shaxslarning yashashi va turmush tarzida, ta'lim olishida bir necha imtiyozlar va qulayliklarni yaratish, ularni axborot kommunikatsiyalari bilan ta'minlash to'g'risida bayon etilgan. Anjuman jarayonida ham mavzuga oid g'oya va takliflar, ilmiy va ustuvor yo'nalishlar ko'rib chiqiladi.

Inklyuziv ta'limning muammolari sifatida bir necha misollarni keltirishimiz mumkin.

Bular jumlasiga nogironligi bor, inklyuziv ta'limga muhtoj shaxslarning nafaqalarini o'z vaqtida berilishini ta'minlash, ular uchun ajratilgan qo'shimcha pullarning o'z vaqtida yetkazilmasligi, nogironligi bor shaxslarning, jumladan, bolalarning otalar bilan bog'liq muammolar; ularning murojaatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlamaslik kabilar uchrab turadi. Ta'lim muassasalarida ham, umumta'lim maktablari ham ularning o'quv jarayonlari uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilmaganligi, ularning o'quv jarayonlari uchun yetuk mutaxassis kadrlarning yetishmasligi muammolari bor.

Bu muammolarni bartaraf qilish uchun har bir nogironligi bor shaxsga alohida vakil birlashtirish, ularning nafaqa va qo'shimcha pullarini vaqtida to'lashni ta'minlash lozim. Otalar bilan turli muzokara va muhokamalarni, yig'ilishlarni o'tkazish, ularning muammolarini o'z vaqtida, o'z joyida hal qilish lozim. Ta'lim muassasalarida esa ular uchun o'quv jarayonlarini tashkil etishda yetuk mutaxassislar tomonidan dars o'tilishini, darsga kelishga imkon bo'lmaganlar uchun o'z uylarida oflayn ta'limni tashkil etish lozim. Oliy ta'lim muassasalarida esa kelib ketishga layoqati bor talabalarning dars jarayoniga qatnashishini ta'minlash lozim.

Inklyuziv ta'lim jarayoni yo'lga qo'yilar ekan, unda ta'lim oluvchi har bir shaxs o'z qadriyatini, o'z qobiliyatini namoyon qilish, yutuqlarga erishish, dars jarayonida qatnashish, yutuqlarga erishish, bir-biri bilan muloqotga kirishish, bir-birini to'ldirish imkoniga ega bo'ladi.

Ilk marotaba nogironlarni umumta'lim maktablari va o'quv tizimida o'qitishga qaratilgan islohotlarga e'tibor berish Respublikamizda 1996-yilda boshlangan. Bunga sabab esa O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi Respublika ta'lim markazi va YUNESCO tashkiloti bilan

birgalikda o'tkazilgan respublika seminari bunga asos bo'lgan. Shundan boshlab yurtimizda bu ta'limni rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida esa bir necha yutuq va muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Bular har bir nogironligi bor insonlar ham sog'lom insonlar qatori ulardan kam bo'lmagan holda ta'lim olishlari ta'minlanmoqda. Tengqurlari singari o'qish va yozish ko'nikmalari ularda ham shakllantirilmoqda. Buning natijasida yurtimizda ularning sog'lig'i, jinsi, ehtiyojlariga nisbatan cheklovlar, kamsitishlarning oldi olinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har bir inson uning ijtimoiy holati, kelib chiqishidan qat'i nazar bilim olishga haqli. Shunday ekan inklyuziv ta'limning rivojlanishiga alohida e'tibor berishimiz lozim.

Undagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etgan holda barcha shaxslarning bilim olishini ta'minlashimiz lozim. Inklyuziv ta'lim muammolarini bartaraf etgan holda yurtimizda nogironligi bor shaxslar ta'lim olishiga mo'ljallangan muassasa, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ko'paytirish, ularni tarbiyalovchi o'qituvchi, tarbiyachi va yetuk pedagog mutaxasislarni ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES

1. Inklyuziv ta'lim. UNICEF har bir bola uchun.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" 2020-yil 15-oktabr O'RQ- 641-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida " 2019-yil 8-oktabr , PF-5847
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" . PQ-4860-son qarori.
5. Ganieva, M. (2023). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
6. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODOICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.